

**BEMORLARNI DAVOLASHDA SHIFOKOR FAOLIYATIDA TIBBIY ETIKA VA  
DEONTOLOGIYANING O'RNI VA AHAMIYATI**

**Aliqulova Dildora Yaxshibayevna**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Allergologiya, klinik immunologiya va hamshiralik  
ishi kafedراسi katta o'qituvchisi*

**Abduraxmanov Shaxriyor Zafar o'g'li**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Menejment : Sog'liqni saqlash menejmenti yo'nalishi  
3-bosqich talabasi*

**Ibragimov Dilshodbek Anvar o'g'li**

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi Menejment : Sog'liqni saqlash menejmenti yo'nalishi  
2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya:** *Hozirgi kunda shifokor (vrach va hamshira) bilan bemor orasidagi munosabatlar chuqur falsafiy mushohada yuritishni talab qiladi. Davoning boshi ishonchdan boshlanadi, ya'ni bemor shifokorga va uning berayotgan dori-darmonlariga ixlos qo'yishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, bemor shifokorga ishonishi kerak. Bu ishonchni paydo qiladigan inson, albatta, shifokorning o'zidir, uning go'zal nutqi hisoblanadi. Shifokor deontologiyasida yotadigan bemor bilan shifokor munosabati, shifokorning butun bilimi, odobi butun bilim-harakati bemorga doimiy ishonch uyg'otishga bo'lishi kerak. Bemorda o'zini qiynagan dardga shifokor malhham, najot bo'la oladi, degan umid va tuyg'u paydo bo'lishi kerak. Buning uchun avvalo vrach bemor bilan muloqot san'atini egallashi shart.*

**Kalit so'zlar:** *Tibbiy etika, tibbiy deontologiya, shifokor siri, deontologiya qonun-qoidalari, shifokor xatolari, oqilona anamnez yig'ish, muloqot qilish san'ati, xushmuomalalik.*

**Annotation:** *Nowadays, the relationship between the doctor (doctor and nurse) and the patient requires deep philosophical observation. Treatment begins with trust, that is, the patient must be loyal to the doctor and the medicines he is giving. In short, the patient must trust the doctor. The person who creates this confidence is, of course, the doctor himself, his beautiful speech. The doctor's relationship with the patient, the doctor's entire knowledge, manners, and actions should be aimed at instilling constant trust in the patient. The patient should have the hope and feeling that the doctor can be a salve and salvation for the pain that tormented him. For this, the doctor must first master the art of communication with the patient.*

**Key words:** *Medical ethics, medical deontology, doctor's secret, rules of deontology, doctor's mistakes, reasonable history taking, art of communication, politeness.*

**KIRISH**

TIBBIY ETIKA - shifokor va bemor o'rtasidagi, shifokor va bemor qarindoshlari o'rtasidagi, shuningdek tibbiy xodimlarning o'zoro kasbiy-tibbiyotga oid muloqatini ifodalaydi.

DEONTOLOGIYA- burch degan ma'noni anglatadi. Tibbiyot xodimi ( shu jumladan shifokor) ning bemor oldidagi majburiyatini va unga yuklangan ma'suliyatini, ya'ni bajarishi lozim bo'lgan ishini ifodalaydi. Hozirgi kunda shifokor (vrach va hamshira) bilan bemor orasidagi munosabatlar chuqur falsafiy mushohada yuritishni talab qiladi. Davoning boshi ishonchdan boshlanadi, ya'ni bemor shifokorga va uning berayotgan dori-darmonlariga ixlos qo'yishi kerak. Bir so'z bilan aytganda, bemor shifokorga ishonishi kerak. Bu ishonchni paydo qiladigan inson, albatta, shifokorning o'zidir, uning go'zal nutqi hisoblanadi. Qolaversa, deontologiya degani, faqat bemorga shirin so'z gapirib, unga kulib qarab turish degani emas, deontologiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biri, ta'kidlab o'tganimizdek, ishonchdir. Ba'zan hadeb vahima qilaveradigan bemorni qattiqroq "koyib" qo'yishga ham to'g'ri keladi. Ana shundagina u vrachga ishonadi. Bemor o'zicha o'ylaydi: "Agar kasalim haqiqatan ham davosiz bo'lganida, doktor meni urishib bermasdi"- deb o'ylaydi. Ko'p hollarda vrach bemorning so'zini oxirigacha tinglamaydi. Bu esa deontologiyaga zid xatti-harakat hisoblanadi. Bunga sabab qilib, tashqarida kutib turgan bemorlarni va vaqti ziqligini ro'baro qiladi. Lekin shuni unutmaslik kerakki, hozir yoningizga kirgan bemor tashqarida kutib o'tirgan bemorlar yoki shifokorning vaqti ozligining qurboni bo'lmasligi kerak. Bu bemor shifokorni deb kelganligini unutmaslik kerak. Qolaversa, oq halatga dog' tushiradigan ishni shifokor qilmaslik kerak. Bemorning dardini oxirigacha eshitish lozim. To'g'ri, ba'zan bemor bir oz gapirganidan so'ng uning dardi doktorga ayon bo'lib qolishi mumkin. Biroq, bemor hali so'zini tugatgani yo'q. U o'zini bezovta qilayotgan barcha shikoyatlarini doktorga aytmoqchi bo'ladi. Gap shundaki, bemor dardini qancha ko'p to'kib solsa, shuncha yengillashadi. Bemorning uzundan-uzoq so'zlari doktorga tashxis qo'yish uchungina emas, balki uning dardini yengillashtirish uchun ham kerak. Demak, vrach bemorni eshitayotib nafaqat uning kasalini aniqlaydi, balki davolaydi ham! To'g'ri, bemor kasaliga taalluqli bo'lmagan ma'lumotlarni ko'p so'zlashi, doktorning vaqtini behuda o'g'irlashi mumkin. Bunday paytlarda bemorga kasalligiga doir qo'shimcha savollar berib, uni to'g'ri yo'lga solish zarur. Bu xatti-harakatni faqat etika va deontologiyani yuksak darajada egallagan shifokorningina qo'lidan keladi. Ayniqsa, nevrozga chalingan bemor ko'p so'zlashni, shikoyatlarini rang-barang qilib aytishni xush ko'radi. Yana u zamonaviy apparatlarda bir qancha tekshiruvlardan o'tishni xohlaydi, bular bemorga shart bo'lmasa-da. Imkoniyatga qarab uning iltimoslarini bajarish kerak yoki bemor bir-ikkita tekshiruvlardan o'tgandan so'ng "Bularning xulosasi yaxshi chiqdi, qolgan tekshiruvlar endi shart emas"-deb uni tinchlantirish lozim. Shifokorning muloqot qilish san'ati uning bemor bilan o'zaro munosabatida namoyon bo'ladi, bemorning unga nisbatan qanchalik ishonch bildirishi darajasi bilan aniqlanadi. Faqat bemorning

ishonchini qozonib, to'la-to'kis anamnez yig'ish mumkin, uni davolash jarayonida undan nima talab qilinishini tushuntirish mumkin.

Tibbiyot deontologiyasi aloqalari.

Tibbiy deontologiya shifokorlarning burchi va odobi haqidagi fandır.Va ular quydagilarga bo'linadi.

- shifokor bilan bemor o'rtasida munosabat;
- shifokor bilan bemorning qarindoshlari va yaqinlari munosabati ;
- shifokorlarning hamkasblari bilan munosabatlari ;
- shifokor bemorni davolash jarayonidagi huquqlari;
- ustoz va shogird munosabatlari;
- shifokor siri va xatolari;

kabi muammolarni hal qilish bilan shug'ullanadi. Shifokor deontologiyasini tibbiy amaliyotida to'g'ri harakat qilish vrachlarning ongi, saviyasi, dunyoqarashi, bilim mezoni, qaysi sohada va lavozimda ishlayotganligi va qaysi jamiyatda yashayotganligi bilan chambarchas bog'liqdir. Shifokor deontologiyasi fan sifatidagi keng tarmoqlarga va jabhalarga ega. Yuzaki deontologiya umumiy fanga yaqin bo'lsa xam, ammo shifokorning har bir sohasida o'ziga xos xususiyati mavjud. Qolaversa, terapevtlar, xirurglar, stomatologlar, psixiatr va onkologlar umumamaliyot va individual vrachlar deontologiyasi bir-biridan farq qiladi.

Bugungi kunning talabiga ko'ra umumamaliyot va moddiy jihatdan deontologiyasi yuqori o'ringa ko'tarildi. Shifokor deontologiyasi asosida yotadigan bemor bilan munosabati, shifokorning butun bilimi, odobi butun bilim-harakati bemorga doimiy ishonch uyg'otishga bo'lishi kerak. Bemorda o'zini qiynagan dardga shifokor malhham, najot bo'la oladi, degan umid va tuyg'u paydo bo'lishi kerak. Buning uchun avvalo vrach bemor bilan muloqot san'atini egallashi shart. Ulug' rus olimi Bexterev: "Agar vrachning birinchi suxbatidan so'ng bemor o'zini yengil his etmasa u vrach emas"-degan edi. Bemor bilan suxbatlashish san'ati bemorning ismi-sharifi, nasli-nasabi, kasb-kori, xizmatlarini hisobga olgan xolda o'ziga xos ravish olib borilishini talab qilishini bilamiz. Vrach bemor suhbatining o'zagida bemor dardiga malham bo'lish, yordam kechishi, haqida ishonarli, to'g'ri, obektiv ma'lumotlarga asoslanib ulardan boshqa narsalarga oshkor qilmasdan davolashdan umidvor bo'lish yotadi. Muloqot san'atini egallagan shaxsiy vrach miokard infarktiga, miya insultiga, rakka, bronxial astmaga, silga, shizofreniyaga, zaxm, OITS (SPID) kabi xastaliklarga uchragan bemorlar va xabarlar yaqinlari bilan bir shaklda suhbat qurmasligi kerak. Murakkab jarroxlik amaliyotidan oldin bemorlar va uning yaqinlari bilan olib boriladigan qiyin va uzoq suhbat uslubi o'ziga xos va murakkabdir. Deontologiya qonun-qoidalarining tibbiy amaliyotida to'g'ri foydalanish tibbiy xodimining ongi, dunyoqarashi, bilim mezoni va qaysi jamiyatda yashayotganligi bilan chambarchas bog'langandir. Kishilik jamiyati taraqqiyotining turli bosqichlarida, hamshiralarning bemorlar bilan deontologik munosabatlari turlicha kechgan. U zamon talabiga qarab o'zgarib borgan. Tibbiyot deontologiyasi tubdan yuksak insoniy qobiliyatga bo'lishni

taqozo etadi. Bu sifatlar: bilimdonlik, odamiylik, jasorat, mehr-shafqat, xushmuomalalik, halollik, pokizalik, insofilik, sofdillik, ziyraklik, hozirjavoblik, bosiqlik, kamtarlik, izlanuvchanlik, andishalilikda ko'rinadi. Bemor kasalxonada o'z yaqinlari, do'stlaridan uzoqda bo'lgani uchun ko'pincha o'zini yolg'iz, baxtsiz his etadi. Buning uchun ham hamshira kasallarga e'tibor bilan qarab, g'amxo'rlik ko'rsatishi darkor. Bemorni bo'limda qolgan ba'zi muammolar davo muolajalarining o'z vaqtida bajarilmaganligi, ularning sovuqligi, ovqatning kechikib kelganligi va hokazolar asabiy holatga olib keladi, o'zaro munosabatlarni chigal shakllanishi, bu esa davo natijaga ta'sir ko'rsatadi. Bu muammolarning yechimida, hamshiraning tutgan o'rni, ishlashi beqiyosdir. Shifokorlik sirini saqlash burchi bu zamon deontologiyasining eng dolzarb muammolaridan hisoblanadi. Chunki kasal va uning boshqa oila a'zolarini sihati, illatlari va hayotlarining intim tomonlariga doir turli ma'lumotlar beixtiyor oilaviy shifokorga yetib keladi. Bu ma'lumotlarni boshqalarga aytmaslik, tuzalmas yoki yuqumli dardga chalingan hastalarning sihat-salomatligi haqidagi axborotlarni bemorning va jamoatning foydasini ko'zlagan holda oshkor etish zarurligi haqida o'ylab ish tutishi kerak.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

1. Tibbiyot deontologiyasi xalqaro kodeksini Xalqaro vrachlar jamiyati tasdikdagan (1949, Jeneva).
2. Qosimov E. Y., SHifokorning nutq madaniyati va bemor bilan muloqot san'ati, Tibbiyot deontologiyasi, 2002.
3. Zokirxodjaev Sh.Ya., Solixov M.U. "Shifokor va bemor" Toshkent - 2016 yil.
4. Siluyanovoy I. V. Bioetika v Rossii: sennosti i zakono`, M. 2001. R
5. Fauler M.. Etika i sestrinskoe delo. M., 1994.
6. Merta Dj.. Spravochnik vracha obhey praktiki. M., 1998.
7. Qosimov E.Yu.. Muloqot san'ati. Toshkent, 1996.
8. Garbutt G, Davies P. Should the practice of medicine be a deontological or utilitarian enterprise? J Med Ethics. 2011;37:267-70.
9. Mack P. Utilitarian ethics in healthcare. Int J Comput Internet Manage. 2004;12:63-72.
10. Playford RC, Roberts T, Playford ED. Deontological and utilitarian ethics: A brief introduction in the context of disorders of consciousness. Disabil Rehabil. 2015;37:2006-11.
11. Campbell A.V. Bioethics the Basics. Routledge; London, UK: 2013.
12. Thomasma D.C. Virtue theory in philosophy of medicine. In: Khushf G., editor. Handbook of Bioethics: Taking Stock of the Field from a Philosophical Perspective. Kluwer; Dordrecht, The Netherlands: 2004.
13. <https://en.unav.edu/web/humanities-and-medical-ethics-unit/bioethics-material/el-codigo-de-etica-y-deontologia-medica>

14. [https://en.wikipedia.org/wiki/Medical\\_ethics](https://en.wikipedia.org/wiki/Medical_ethics)